

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.17/04.06.2021.T.06.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

SUYAROV JAHONGIR USMONQUL O‘G‘LI

**MURAKKAB TARKIBLI POLIMETALL KONLARDAN QIMMATBAHO
KOMPONENTLARNI KOMPLEKS AJRATIB OLISH
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

04.00.14 – Foydali qazilmalarni boyitish

**texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Navoiy – 2025

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) of
technical sciences**

Suyarov Jahongir Usmonqul o'g'li

Murakkab tarkibli polimetall konlardan qimmatbaho komponentlarni kompleks
ajratib olish texnologiyasini ishlab chiqish.....3

Суяров Жахонгир Усмонкул угли

Разработка технологии комплексного извлечения ценных компонентов из
сложных полиметаллических месторождений21

Suyarov Jakhongir Usmonqul ugli

Development of a technology for the comprehensive extraction of valuable
components from complex polymetallic deposits.....39

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....42

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.17/04.06.2021.T.06.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

SUYAROV JAHONGIR USMONQUL O‘G‘LI

**MURAKKAB TARKIBLI POLIMETALL KONLARDAN QIMMATBAHO
KOMPONENTLARNI KOMPLEKS AJRATIB OLISH
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

04.00.14 – Foydali qazilmalarni boyitish

**texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Navoiy – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T5058 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nsumt.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Samadov Alisher Usmanovich texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Sharafutdinov Ulug‘bek Ziyatovich texnika fanlari doktori, professor Maxmarajabov Dilmurod Baxtiyorovich texnika fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti “MISiS” ning Olmaliq shahridagi filiali.

Dissertatsiya himoyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi DSc.17/04.06.2021.T.06.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil « 18 » 09 soat 09⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 210100, Navoiy shahri, G‘alaba shoh ko‘chasi, 76v-uy. Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti majlislar zali. Tel.: (79) 223-23-32; faks: (79) 223-49-66; e-mail: info@nsumt.uz)

Dissertatsiya bilan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (222 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 210100, Navoiy shahri, G‘alaba shoh ko‘chasi, 76V-uy, Tel.: (79) 223-23-32; faks: (79) 223-49-66.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «05» 09 kuni tarqatildi.
(2025 yil «05» 09 dagi 26 raqamli reestr bayonnomasi)



K. Sanakulov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi t.f.f.d., professor

O.U. Fuzaylov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.f.d. (PhD)

U.A. Ergashev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi v.b., t.f.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda hozirgi vaqtda murakkab tarkibli polimetall rudalarni boyitish ancha murakkablashdi va metallarning ajralish darajasi yildan-yilga past ko'rsatgichni ko'rsatmoqda. Bunga asosiy sabablardan biri ruda tarkibida qimmatbaho komponentlarning strukturaviy namayon bo'lishi qiyin turdaligi va ruda zahiralari o'rganilganda, qimmatbaho komponentlarning miqdori kamligi, mayin xol-xolligi, zarrachalarning teng taqsimlanmaganligi va yuqori dispersligi tasdiqlandi, shu sababli murakkab tarkibli polimetall rudalarni boyitishga alohida yondashuv asosida texnologiya ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi dunyoda kunda tarkibida murakkab tarkibli oltin saqllovchi kon rudalarini boyitish va gidrometallurgik qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirish, yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish orqali murakkab tarkibli oltin saqllovchi kon rudalari tarkibidan barcha qimmatbaho komponentlarni kompleks ajratib olish va tarkibini maksimal darajada ochish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada murakkab tarkibli oltin saqllovchi kon rudalarini qayta ishlashni samaradorligini oshirish uchun yangi texnologiyalarni ishlab chiqish bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda kon-metallurgiya sanoatida qimmatbaho komponentlarni ajratib olishni ko'paytirish maqsadida murakkab tarkibli polimetall rudalarni boyitishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha ilg'or ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni joriy qilinib, bir qator ilmiy amaliy natijalarga erishilmoqda. Bu borada boyitish uskunalardan konsentratorlarda, magnit ajratgichlarda va flotomashinalarda boyitishning kombinirlangan texnologiyasini chiqish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida¹ "ishlab chiqarishga tejamkor energiya va ekologik jihatdan xavfsiz texnologiyalarni joriy qilish va tashkil etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish..." kabi muhim vazifalar belgilangan. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotning ushbu yo'nalishi, murakkab tarkibli polimetall rudalarni ajratib olishda boyitish texnologiyasini ishlab chiqish va joriy qilish hamda qimmatbaho metallarning ajralish darajasini oshirish uchun yangi texnologiyalardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 Farmonlarida nazarda tutilgan vazifalarni bajarishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti xizmat qiladi. 2021-yil 24-iyundagi, PF-5159 "Kon-metallurgiya sanoatini va unga aloqador boshqa yo'nalishlarni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PQ-4731-sonli "Olmaliq KMK AJ konlari negizida rangli va qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida, shuningdek, ushbu faoliyat bilan bog'liq boshqa normativ hujjatlarda shu sohada qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 -son Farmoni.

belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VII. “Yer to‘g‘risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyolarni qayta ishlash)” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo amaliyotida murakkab tarkibli polimetall rudalarni qayta ishlashning texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy izlanishlarga Sedelnikova G.V., Savari Y.Y., Zaulochniy P.A., Koshel Y.A., Koyjanova A.K., Kenjaliyev B.K., Magomedov D.R., Abdildayev N.N., Fedotov P.K., Senchenko A.Y., Fedotov K.V., Burdonov A.Y. Sanakulov K.S., Samadov A.U., Yakubov M.M., Abduraxmonov S.A., Axmedov X.A., Xasanov A.S., Xabirov V.V., Ergashev U.A va shu kabi boshqa olimlar katta hissa qo‘shgan.

Bu yo‘nalishda gravitatsion boyitishning yangi jarayonlari, vintli separator, shlyuz, konsentratsion stol, konsentratorlardan, magnit ajratgichlardan va flotatsion mashinadan iborat sxema bo‘yicha tadqiqotlarni o‘z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotning bu yo‘nalishida qimmatbaho metallarni ajratib olishni ko‘payishini ta‘minlaydigan yangi texnologiyalardan foydalangan holda, murakkab tarkibli polimetall rudalarni qayta ishlashda boyitish texnologiyasini ishlab chiqish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya ilmiy-tadqiqot ishi I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialida AL-6022012291-son “Oksidlangan mis rudalarini kompleks qayta ishlash texnologiyasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Olchalik konining murakkab tarkibli polimetall rudalarini boyitish orqali nodir va rangli metallar ishlab chiqarishni ko‘paytirish imkonini beruvchi samarali texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Ruda tarkibidagi komponentlarning fizik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, Olchalik rudasining tarkibidan oltin va kumushni markazdan qochma konsentratorlarda boyitishning optimal parametrlarini aniqlash;

Olchalik konining murakkab tarkibli polimetall rudalari tarkibidagi oltin, kumush va mis minerallarining fraksiyalar bo‘yicha sifat-miqdoriy taqsimotini o‘rganish orqali flotatsiya jarayonini o‘tkazish va komponentlarni samarali ajralish ko‘rsatgichiga erishish;

Olchalik koni murakkab tarkibli polimetall rudalarining sanoat mahsulotida oltin, kumush va mis boyitmasini ajratib olishda gravitatsion va flotatsion boyitish usullarini qo‘llagan holda kompleks qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish;

Murakkab tarkibli polimetall konlar rudalarini kompleks boyitishning texnologik sxemasi ishlab chiqilib, dastgohlar zanjiri sxemasini maqbul texnologik

ketma-ketligi aniqlash hamda qimmatbaho komponentlarni yuqori ajralish ko'rsatkichiga ega bo'lgan texnologiya ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini sifatida Olchalik konining murakkab tarkibli polimetall rudalari olingan.

Tadqiqotning predmetini Olchalik konining murakkab tarkibli polimetall rudalaridan qimmatbaho komponentlar (oltin, kumush va mis)ni kompleks ajratib olish texnologiyasini ishlab chiqish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni olib borishda zamonaviy kompleks tadqiqot usullari, jumladan kimyoviy, mineralogik, optik-emission, spektral va analitik tahlillardan foydalanib laboratoriya tajribalari hamda keng qamrovli sanoat-sinov tajribalari natijalarini qayta ishlash usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ruda tarkibidagi komponentlarning fizik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, Olchalik rudasini markazdan qochma konsentratorlarda boyitishda 70 G optimal parametri orqali oltinni boyitmaga ajralish ko'rsatkichi 65,7%, kumushni boyitmaga ajralish ko'rsatkichi 57,94% ni tashkil etishi aniqlangan;

Olchalik konining murakkab tarkibli polimetall rudasi tarkibidagi oltin, kumush va mis minerallarini fraksiyalar bo'yicha sifat-miqdoriy taqsimoti aniqlanib flotatsiya jarayonida 442F yig'uvchi reagenti qo'llash orqali oltin 78,36 %, kumush 57,2 % va misni 71,8 % ajratib olishning samarali ko'rsatkichiga erishish mumkinligi aniqlangan;

Olchalik konini murakkab tarkibli polimetall rudalaridan oltin, kumush va mis ajratib olishda gravitatsion va flotatsion boyitish usullarini qo'llagan holda kompleks qayta ishlash texnologiyasi ishlab chiqilgan;

murakkab tarkibli polimetall konlar rudalarini kompleks boyitishning texnologik sxemasi ishlab chiqilib, qimmatbaho komponentlarni maksimal boyitish darajasiga erishish uchun dastgohlar zanjiri sxemasini maqbul texnologik ketma-ketligi aniqlandi hamda birinchi marta oltinni 88,3 %, kumushni 78,7% va misni 83,8%li ajralish ko'rsatkichiga ega bo'lgan texnologiya ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Olchalik koni polimetall rudalaridan oltin va kumushni markazdan qochma konsentratorlarda boyitishning markazdan qochma kuch kattaligi 70 G va Q:S=1:4 nisbatda, oltin va kumushning boyitmaga ajralishi aniqlangan;

Olchalik konining murakkab tarkibli polimetall rudasi tarkibida mavjud bo'lgan oltin, kumush va mis minerallarining fraksiyalar bo'yicha sifat-miqdoriy taqsimoti o'rganilib, flotatsiya jarayonida 442F yig'uvchi reagenti qo'llash orqali samarali ko'rsatkichiga erishish mumkinligi aniqlangan;

Olchalik konining murakkab tarkibli polimetall rudalarini gravitatsion va flotatsion boyitish usullarini birlashtirgan kompleks texnologiyasi hamda optimal rejimlari ishlab chiqilgan;

ruda namunalari qayta ishlashda qo'llaniladigan dastgohlarning texnik parametrlari aniqlandi va ular asosida Olchalik koni rudasini qayta ishlab, tarkibida 42,85 g/t oltin, 130,4 g/t kumush va 10,3 %li mis boyitmasiga ega bo'lgan boyitma olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi sezilarli hajmdagi murakkab tarkibli polimetall konlar rudalarini qayta ishlashning samarali parametrlari va rejimlarini aniqlash bo'yicha olib borilgan tajriba eksperimentlar hamda sanoat miqiyosida oltin, kumush va misni ajratib olish miqdorlarini qoniqarli mutanosibligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, laboratoriya tajribalari va tajriba-sanoat sinovlari natijasida qimmatbaho komponentlarni (oltin, kumush va mis) ajratib olishga qaratilgan bo'lib, ularning fraksiyalari bo'yicha miqdoriy taqsimlanishi aniqlanganligi bilan izohlanadi va shu asosida Olchalik koni murakkab tarkibli polimetall rudalarini qayta ishlashning kombinirlangan usulini ishlab chiqish bilan izohlanadi;

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati murakkab tarkibli polimetall konlar rudalaridan qimmatbaho komponentlarni (oltin, kumush va mis) ajratib olishni ta'minlovchi texnologik sxemani ishlab chiqish natijasida oltinni 88,3 %, kumushni 78,7% va misni 83,8% boyitmaga ajralish ko'rsatkichiga erishishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Murakkab tarkibli polimetall konlardan qimmatbaho komponentlarni kompleks ajratib olish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida:

Olchalik koni rudalarini markazdan qochma konsentratorlar va flotomashinada boyitish orqali oltin va kumushni qayta ishlash texnologiyasi "Olmaliq KMK" AJ da joriy etilgan ("Olmaliq KMK" AJning 2025 yil 17 martdagi CA-0254-son ma'lumotnomasi). Natijada, ruda tarkibidan 88,3% oltin, 78,7% kumush boyitmasini ajratib olish imkonini bergan;

Olchalik koni rudalarini markazdan qochma konsentratorlar va flotomashinada boyitish orqali misni qayta ishlash texnologiyasi "Olmaliq KMK" AJ da joriy etilgan ("Olmaliq KMK" AJning 2025 yil 17 martdagi CA-0254-son ma'lumotnomasi). Natijada ruda tarkibidan 83,8% mis boyitmasini ajratib olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy – amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 2 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi: kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 122 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqotning Respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan, tadqiqot

natijalarining amaliyotga joriy etilishi bo'yicha tavsiyalar, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar batafsil keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Murakkab tarkibli polimetall rudalarni boyitilganligi bo'yicha ilgari amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida zamonaviy adabiy manbalarni ko'rib chiqish va tahlil qilish, murakkab tarkibli polimetall rudalardan qimmatbaho komponentlarni qayta ishlash uchun dunyoning asosiy korxonalarining texnologiyalari ko'rib chiqilgan. Dunyoning bir qator mamlakatlarida oltin, kumush va mis kabi metallarni o'z ichiga olgan rudalarni boyitish fabrikalarida turli usullar yordamida rudalarni boyitish natijasida ilmiy tadqiqotlar olib borilganligi aniqlandi. Adabiyotlar tahlili natijasida polimetall rudalarning mexanik, fizik-kimyoviy xususiyatlarining boyitish jarayoniga ta'siri o'rganildi.

Rangli va qimmatbaho metallarning tarkibiy qismlarini, qo'shimcha zaxiralarni oshiradigan umuman sanoatni qayta ishlashning ilmiy asoslangan texnologiyalarini ishlab chiqish, tog'-kon metallurgiya sanoatida ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Murakkab tarkibli polimetall rudalarni qimmatbaho komponentlarni ajratib olish texnologiyalari bo'yicha tajribalar o'tkazish usuli va tadqiqot obyektlarini asoslash”** deb nomlangan ikkinchi bobida Olchalik konidan keltirilgan namunalari, joylari, ruda va ruda qamrab oluvchi metasomatitlarni mineral tarkiblari hamda namunalarning moddiy tarkibini o'rganishda foydalanilgan tahlil usullari, jumladan, to'liq kimyoviy, spektral, optik-emission spektral, probir, qimmatbaho komponentlarning joylashuv formatsiyalari, polimetall formatsiyasi bilan ifodalangan quduqlarning joylashish sxemalari, tadqiqot mobaynida foydalanilgan barcha turdagi tayyorlash, boyitish va tahlil qilish uskunalar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Olchalik ruda namoyonlari siyenito-dioritlar, diabazli porfirritlar va kvarsli porfirritlarning ko'p sonli subvulkanik tanalari bilan yorib o'tgan o'rta karbon yoshidagi gabbroli va dioritli massivlar chegarasida joylashgan. Oltin, mis-porfirli va kumush bilan polimetall konlarga istiqbolli bo'lgan Olchalik ruda namoyonida rudani nazorat qiluvchi strukturalar sifatida shimoliy-sharqiy yo'nalishdagi uzilmali buzilishlar va kvarsli porfirritlarning subvulkanik tanalari, gabbroli siyenit-dioritlarning kontakt zonalari ko'rib chiqildi. Sharqiy uchastkada asosiy rudani nazorat qiluvchi tuzilmalar Olchalik paleovulkanonidan qiya shaklida tarqaladigan radial yoriqlar va uchastkaning murakkab strukturaviy mozaikasini hosil qilgan shimoli-sharqiy yo'nalishdagi yoriqlardir. Rudalashuvda diabazli porfirritlar subvulkanik tanalarining tufuqumtoshlar bilan kontakt zonalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu pozitsiyada ko'plab qadimiy qazilmalarni uchratish mumkin. Batafsil izlanishlar jarayonida Olchalik koni doirasida kumush-qo'rg'oshin, oltin-kumush va mis-porfir konlarini aniqlashga istiqbolli bo'lgan bir qator obyektlar ajratildi. Olchalik konining obyektlari o'rganilib balans va balansdan tashqari zaxiralarning umumiy hajmi 33 mln.t., ekanligi geologlar tomonidan prognoz qilingan va tarkibida oltin miqdori 2,48 g/t, kumush miqdori 8,47 g/t va mis miqdori 0,63% ekanligi aniqlangan.

Dissertatsiyaning “**Murakkab tarkibli polimetall rudalardan qimmatbaho komponentlarni kompleks ajratib olishning texnologiyasini tadqiq qilish va aniqlash**” deb nomlangan uchinchi bobda – granulometrik, spektral, ratsional va kimyoviy tahlillar, tadqiqot natijalari, yangi texnologiyalarni tanlash, boyitish darajasini o‘rganish, murakkab tarkibli polimetall rudalardan metallarni ajratib olishning maqbul parametrlari keltirilgan. Olchalik konining polimetall rudasini to‘liq tahlil qilish uchun dastlab ruda elakdan o‘tkazildi va granulometrik tahlili natijalari olindi.

Rudani granulometrik tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatdiki, yirik sinfdagi foydali komponentlar miqdori mayda sinfga qaraganda biroz yuqori. yanchilgan ruda nam holda 0,074 mm o‘lchamdagi elakdan o‘tkazildi. Sinflanish darajasi natijasiga bog‘liqligi va -0,074 mm gacha yanchish vaqti sarfiga bog‘liqligi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Sinf chiqishining -0,074+0mm yanchilish vaqtiga bog‘liqligi

Yanchish vaqti, min	0	10	20	30
Sinf chiqishi -0,074mm, %	9,14	46,7	74,9	84,5

Ruda namunasi gidrotermal o‘zgargan effuziv jinslarning bo‘lakli materialidan iborat bo‘lib, ularning o‘lchami 5 sm gacha yetadi. Mineralogik tahlil kimyoviy atom-absorbsion, ratsional, optik-emission spektral tahlillar yordamida amalga oshirildi, ular asosida Olchalik rudasi namuna minerallari ro‘yxati tuzildi. Rudaning moddiy tarkibini, oltin va kumushning joylashish shakllarini, ularning oltin tarkibli sulfidlar, noruda minerallar bilan bog‘liqligini aniqlash uchun mikroskopik va vizual ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

2-jadval

O‘rtacha ruda namunasining ratsional tahlili natijalari


Oltin, kumushning joylashish shakli va ularning rudali komponentlar bilan bog‘lanish xarakteri	Metallarni taqsimlash			
	Au		Ag	
	g/t	%	g/t	%
Au va Ag sof tug‘ma, boshqa minerallar: xloridlar, sulfatlar, kumushning oddiy sulfidlari bilan aralashmada bo‘ladi	1,99	80,17	6,44	76,06
Kislotada eriydigan minerallar, temir va marganes oksidlari bilan bog‘langan Au va Ag	0,16	6,61	0,33	3,87
Au va Ag sulfidlarda (pirit va arsenopirit) (HNO ₃ bilan ishlov berilgandan keyin sianlashtiriladigan)	0,18	7,44	0,92	10,92
Au va Ag kvars, alyumosilikatlar va boshqa kislotada erimaydigan minerallarda	0,14	5,79	0,77	9,15
Jami namunalar	2,48	100	8,47	100

Ruda namunasidagi ratsional tahlil natijalari bo‘yicha:

- sof tug‘ma oltin va kumush 1,99 g/t (80,17%), kumush 6,44 g/t (76,06%);
- kislotada eruvchi minerallar hamda temir va marganes oksidlari bilan bog‘langan oltin 0,16 g/t (6,61%) va kumush 0,33 g/t (3,87%) ni egallaydi;
- Au-0,18 g/t (7,44%) va Ag-0,92 g/t (10,92%);
- kvars va alyumosilikatlardagi oltin va kumush va boshqalar. Kislotada erimaydigan minerallar: Au-0,14 g/t (5,79%) va Ag-0,77 g/t (9,15%);

Quyida 3-jadvalda minerallarning taxminiy miqdoriy nisbatlari, ularning donalari va namuna monomineral agregatlarining o'lchamlari, Olchalik rudasini tashkil etuvchi minerallarning ro'yxati va tavsifi keltirilgan.

O'rganilayotgan ruda namunasida oltinning asosiy topilish shakli ultra-yupqa dispers va changsimon hisoblanadi. Rudaning o'rtacha namunasining to'liq kimyoviy tahlili laboratoriyada UV-VID dastgohida va titrlash usulida amalga oshirildi, uning natijalari 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. O'rtacha ruda namunasining kimyoviy tahlil natijalari

O'rtacha namunadagi kimyoviy tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, o'rganilayotgan ruda namunasida oltin miqdori 2,48 g/t, kumush 8,47 g/t va mis 0,63% ni tashkil etdi.

Rudaning moddiy tarkibi bo'yicha tajriba sinovlari boyitish usullari asosida amalga oshirildi. Bunda tadqiqotlar asosan boyitishning gravitatsion va flotatsion, gidrometallurgik usullari asosiy usullar sifatida qabul qilingan. Rudani maydalash 40 ML markali laboratoriya sharli tegirmonida Q:S hamda sharlar nisbati 1:0,75:8 ga teng bo'lgan holda amalga oshirildi. Rudani gravitatsion boyitish 30KS markali laboratoriya konsentratsion stolida, markazdan qochma konsentratlarda amalga oshirildi. Ruda flotatsiyasi FM-1, FM-2, FL-237 laboratoriya flotatsiya mashinalarida amalga oshirildi. Flotatsiya qilishdan oldin ruda 40ML markali laboratoriya sharli tegirmonlarida 1 kg dan yanchildi. Boyitish tajribalari natijalari "Perkin-Elmer" firmasining atom-absorbsion spektrometri yordamida qimmatbaho komponentlarga kimyoviy tahlil ma'lumotlari bo'yicha baholandi.

Gravitatsion oltin tarkibli konsentratlarning sifati TU-Uz-65-001-94-003 texnik shartlari bo'yicha baholandi, ular bilan konsentratdagi oltin miqdori 50 g/t dan kam bo'lmagan va zararli aralashmalar: As=0,7% (margumush) dan ko'p bo'lmagan hamda Sb=0,3%(surma) va Al₂O₃=10%. Tarkibida oltin bo'lgan flotatsion boyitmalarni baholash uchun TU-Uz-65-001-94-006 texnik shartlaridan foydalanildi, unda oltin miqdori kamida 20 g/t va zararli aralashmalar miqdori As=2%, Sb=0,3% va Al₂O₃ = 10% dan oshmagan. Gravitatsion boyitish rudadan nisbatan yirik sof oltin zarralari va sulfidlarni graviokonsentratga ajratish uchun amalga oshirildi. Gravitatsion boyitish uchun kelib tushgan materialning yirikligi dastlabki rudaning yirikligidan kelib chiqqan holda qabul qilindi. Bunda -0,5+0 mm

dan -0,1+0 mm gacha o'Ichamlarda o'zgarib turdi. Dastlab konsentratsion stolda amalga oshirildi. Bunda quyidagi parametrlarda standart shaklda tajriba o'tkazildi. Stolning ishlash rejimi: - tebranish chastotasi minutiga 110 yurish; - tebranish amplitudasi 8-9 mm; - dekaning ko'ndalang qiyaligi 7-10⁰; - ruda miqdori 5 kg; - yuvuvchi suv sarfi - 4,5 l/min.


3-jadval

Olchalik koni rudasining mineralogik tahlil natijalari


Minerallar nomi	Miqdor, %	Agregat va zarrachalar o'lchami, mm			
		Mavjudligi		namayonlanishi	
		dan	gacha	dan	gacha
Oltin, kumush va vismut minerallari: Sof tug'ma oltin	bir. xil.		0,035	0,004	0,02
Maldonit	bir. xil.	0,001	0,008	-	-
Silvinit	bir. xil.	0,001	0,018	-	-
Vismut va tellur minerallari: Vismutin	bir. xil.	0,03	0,32	-	-
Tetradimit	bir. xil.	0,007	0,06	-	-
Sulfidlar: Pirit	~3,7	0,001	2,10	0,05	0,2
Xalkopirit	~1,62	0,001	3,55	0,01	0,2
Sfalerit	bir. xil.	0,001	0,05	Mayin zarrachali	
Arsenopirit		0,001	0,01		
Temir gidrooksidi	bir. xil.	Mayin zarrachali			
Jins hosil qiluvchi minerallar: Kvars	~44,6	0,02	0,35	0,1	0,25
Plagioklazi (o'rtacha tarkibli)	~8,1	0,005	0,3	0,05	0,1
Kaliyli dala shpati	2,1	0,005	0,2	Mayin zarrachali	
Seritsit+gidroslyuda	~24,0	Mayin zarrachali			
Xloriti	~6,0	0,001	0,2	Mayin zarrachali	
Aktinolit	R. zn.	0,01	0,03	Mayin zarrachali	
Karbonati: Ankerit+ kalsit	7,5	0,07	1,25	0,1	0,2
Aksessorniye minerali: Apatit	~0,7	0,003	0,01	Mayin zarrachali	
Rutil+sfen	~0,5	0,001	0,01		
Magnetit	~0,5	0,001	0,02		
Flyuorit	R. zn.	0,01	0,08	-	

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, konsentratsion stolda namunaning boyitilishida rudani maydalashning yirikligi -0,25+0 mm bo'lganda eng yaxshi ko'rsatkichlar olindi. Bunda tarkibida 47,81 g/t oltin, 125,2 g/t kumush va 6,2 % mis bo'lgan gravioboyitma olinib, qimmatbaho metallar ajratib olishda mos ravishda 63,1%, 48,2% va 32,1% ni tashkil etdi. Bundan tashqari boshqa gravitatsion uskunalarda: cho'ktirish mashinasi, shlyuz, vintli separator va markazdan qochma konsentratorlarda ham amalga oshirildi. Ushbu uskunalardan Knelson rusumli markazdan qochma konsentratorida rudaning o'lchami 0,1-0 mm


gacha, markazdan qochma kuchning qiymati 70 G, suvining sarfi 3-3,5 l/min. bo'lganda eng yaxshi ko'rsatkich olindi.



2-rasm. Ruda namunalarni konsentratsion stolda boyitish sxemasi




3-rasm. Rudalarni konsentratsion stolda boyitish natijalari




4-rasm. Ruda namunalarni markazdan qochma konsentratorda boyitish sxemasi

Bunda tarkibida 51,43 g/t oltin, 154,8 g/t kumush va 6,9 % mis bo'lgan graviboyitma olinib, qimmatbaho metallarning ajralishi mos ravishda 65,7%, 57,94% va 34,78% ni tashkil etdi.




5-rasm. Ruda namunalarini markazdan qochma konsentratorda boyitish natijalari




6-rasm. Olchalik koni ruda namunasini markazdan qochma konsentratorda boyitish natijalari

Ushbu taqqoslash grafigidan ko'rishimiz mumkinki, markazdan qochma kuchning qiymati har xil kattalikda o'tkazilgan tajriba sinovlardan 70G dagi qiymatida eng yaxshi natija olingan.


Tajribalarni o'tkazish uchun rudani -0,074+0 mm sinfining 80% yirikligigacha yanchish, flotatsiyaning asosiy, nazorat va tozalash jarayonlarini o'z ichiga olgan standart sxema olingan bo'lib yig'uvchi reagent BKK va hozirda tajriba sinov amaliyotida bo'lgan 442F markali yig'uvchi reagentlar bilan flotatsiya jarayoni o'tkazildi, qolgan reagentlar sarfi quyidagi rejim bo'yicha doimiy ushlab turildi (g/t): soda - 500; - vertyon moyi - 40; 442F yig'uvchi o'zgaruvchan sarfda; -T-92 - asosiy flotatsiyaga -40 va nazorat flotatsiyasiga -20.



7-rasm. Rudalarni flotatsiya usulida boyitish sxemasi



8-rasm. Olchalik koni rudalarini flotatsiya usulida BKK bilan boyitish natijalari



9-rasm. Olchalik koni rudasini 442F reagent bilan flotatsiyalash natijasi.


Ushbu grafikdan ko‘rinib turibdiki namunalarni flotatsiya usulida boyitishda BKK ning eng maqbul sarfi 120 g/t asosiy flotatsiyaga, 60 g/t nazorat flotatsiyasiga

qo'shish orqali olindi. Namunalarni flotatsiya usulida boyitishda BKK ning eng maqbul sarfida tarkibida 25,47 g/t oltin, 63,18 g/t kumush va 5,94 % mis bo'lgan flotaboyitma olindi, bunda oltinni ajralishi 77,2 % ni, kumushniki 55,8 % ni va misniki esa 70,5% ni tashkil qildi.

Qo'llanilgan yig'uvchi reagent BKK ning o'rniga hozirda tajriba sinov amaliyotida bo'lgan 442F markali yig'uvchi reagentning har xil sarfi bilan flotatsiya jarayoni o'tkazildi. Qolgan reagentlar sarfi quyidagi rejim bo'yicha doimiy ushlab turildi (g/t):

- soda - 500; - vertyon moyi - 40; -T-92 - asosiy flotatsiyaga -40 va nazorat flotatsiyasiga -20. va olingan natijalar quyidagi grafikda keltirilgan.

Ko'rinib turibdiki, rudani 442F yig'uvchi reagentlar bilan flotatsiya jarayoni amalga oshirilganda tarkibida 20,72-28,34 g/t oltin, 52,09-76,74 g/t kumush va 4,82-6,99 % misli boyitma olindi va o'z navbatida qimmatbaho komponentlarning ajralishi oltin uchun 60,9-79,23%, kumush 48,2-58,31% va mis 59,1-72,6% ni tashkil etdi.



10-rasm. Olchalik koni rudasini flotatsiya usulida BKK va 442F reagentlarini qo'llagan holda olingan natijalar farqi.

Namuna flotatsiya usulida 442-F reagenti bilan boyitilganda tarkibida 25,47 g/t oltin, 63,49 g/t kumush va 5,93% mis bo'lgan flotaboyitma olindi, bunda qimmatbaho metallarni ajralishi: oltin-78,36%, kumush-57,2%, mis-71,8% ni tashkil qildi. BKK va 442-F reagentlarini qo'llab natijalar solishtirilganda, 442-F reagentini BKK reagenti umumiy sarfining (120 g/t) 75% ga teng miqdorda (90 g/t) foydalanilganda, BKKni qo'llab olingan ko'rsatkichlardan ko'ra yuqoriroq ajralish darajasiga erishish aniqlandi. Foydali komponentlarni flotatsiyalanish xususiyatlarini oshirish, chiqindilarda qimmatbaho metallar miqdorini kamaytirish va ularni flotatsiya chiqindilari bilan yo'qotilishini oldini olish uchun tajribalar, qo'shimcha sifatida uzluksiz jarayon asosida o'tkazilgan flotatsiya tajribalarining natijasida, tarkibida 37,6 g/t oltin, 119,4 g/t kumush va 8,9 % mis bo'lgan boyitma olindi, bunda qimmatbaho metallarning boyitmaga ajralishi: oltin-77,8%, kumush-72,3%, mis-72,6% ni tashkil qildi. Olingan boyitmalar foydali komponentlarni miqdori jihatidan, mis erituvchi zavodlarga kelib tushadigan boyitmalarga qo'yiladigan talab TY-Y3-65-001-94-003, TY-Y3-65-001-94-006 ga javob beradi.

4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, yanchilgan boyitmani sorbsion sianlashda oltinni smolaga ajralishi 93,70 % va kumushniki 83,40 % ni tashkil etdi; flotatsiyaning oxirigacha yanchilgan chiqindilaridan 78,85% oltin va 75,30%

kumush smolaga ajratib olindi va boyitmani sorbsion sianlashda oltinning smolaga ajralishi 92,10% va kumushning ajralishi 79,60% ni tashkil etdi.

4-jadval

Olchalik koni rudasini boyitish mahsulotlarini sorbsian sianlash natijalari

Mahsulot nomlari	Miqdor, g/t				Eritmaga ajralishi, %		Bo'tana hajmiga nisbatan D-301G qatronining sarfi, %
	dast. mah.		kekda		Au	Ag	
	Au	Ag	Au	Ag			
Mahsulotlarning dastlabki o'lchami							
Boyitma 1	42,85	130,4	3,72	27,7	91,30	78,20	-
Boyitma 2	42,85	130,4	3,38	25,9	92,10	79,60	2
Chiqindi 1	0,3	2,07	0,065	0,5	78,40	75,55	-
Chiqindi 2	0,3	2,07	0,065	0,51	78,38	75,10	2
-0,074+0 mmli yanchilgan mahsulot							
Boyitma 1	42,85	130,4	2,95	22,49	93,10	82,30	-
Boyitma 2	42,85	130,4	2,7	21,1	93,70	83,40	2
Chiqindi 1	0,3	2,07	0,065	0,52	78,12	74,85	-
Chiqindi 2	0,3	2,07	0,063	0,51	78,85	75,30	2


Dissertatsiyaning “**Murakkab tarkibli polimetall rudalaridan qimmatbaho komponentlarni kompleks ajratib olish uchun tavsiya etilayotgan texnologiya va uning iqtisodiy samaradorligi**” deb nomlangan to'rtinchi bobida ishlab chiqilgan texnologik sxemalar va tanlangan sxema asosida olingan natijalar, kontsentratlarni qayta ishlashga bag'ishlangan dastgohlar zanjir sxemasi hamda balans ko'rsatgich natijalari keltirilgan.

Bajarilgan laboratoriya va texnologik tadqiqotlarning natijalari bo'yicha Olchalik koni polimetall rudalarini boyitish uchun qayta ishlashning gravitatsiya-flotatsiya sxemasi tavsiya qilinadi. Tavsiya qilingan texnologik sxemaga ko'ra ruda namunasi -0,1+0 mm gacha yanchiladi va markazdan qochma konsentrator (Knelson) da gravitatsion boyitiladi. Polimetall rudalarni markazdan qochma konsentratorida boyitish chiqindilari misni maksimal darajada ajratib olish maqsadida 80% -0.074 mm gacha yanchib flotatsiya jarayoniga yuboriladi. Flotatsiya jarayonida asosiy, nazorat hamda metallarni boyitish darajasini oshirish maqsadida tozalash jarayonlari qo'llaniladi. Flotatsiya jarayoniga yig'uvchi reagent BKK ning o'rniga 442F yig'uvchi reagent (135g/t) qo'llanilgan va qolgan reagentlar optimal rejim asosida ushlab turiladi.

5-jadval


Olchalik koni rudasini tavsiya qilingan texnologik sxema bo'yicha qayta ishlash natijalari

Boyitilgan mahsulotlar	Chiqishi, %	Miqdori			Ajralishi, %		
		g/t		%	Au	Ag	Cu
		Au	Ag	Cu			
Graviboyitma	3,17	51,43	154,8	6,9	65,7	57,94	34,78
Flotaboyitma	1,94	28,89	90,63	15,92	22,7	20,76	49,02
Umum.boyitma	5,11	42,85	130,4	10,3	88,3	78,7	83,8
Chiqindi	94,89	0,30	1,9	0,10	11,7	21,3	16,2
Ruda	100	2,48	8,47	0,63	100	100	100



11-rasm. Olchalik koni polimetall rudasini boyitishning kombinirlangan sifat-miqdor sxemasi

Olchalik koni rudasini tavsiya qilinayotgan kombinirlangan sxema bo'yicha boyitish orqali, oltinni 88,3%, kumushni 78,7% va misni 83,8% ajratib olinib, tarkibida oltin 42,85 g/t, kumush 130,4 g/t va mis 10,3 % bo'lgan birlashgan boyitma olindi. Olingan boyitma TU-Uz-65-001-94-006 talablariga javob beradi va "Olmaliq KMK" AJ mis eritish zavodida mis konsentrati bilan birgalikda eritish uchun yaroqli hisoblanadi.



1- Jagʻli maydalash dastgohi JC231 ; 2- elash dastgohi 2YK1235; 3- tegirmon MIIP 2700*3600; 4- klassifikator; 5- Markazdan qochma konsentrator; 6- tegirmon MIIP 2700*3600; 7-gidrotsiklon; 8-11- flotatsiya mashinasi.

12-rasm. Olchalik koni polimetall rudasini boyitishning dastgohlar zanjir-sxemasi

XULOSA

Murakkab tarkibli polimetall konlardan qimmatbaho komponentlarni kompleks ajratib olish texnologiyasini ishlab chiqish mavzusidagi texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi boʻyicha olib borilgan tadqiqotlarga asoslangan holda, nazariy va amaliy ahamiyatga ega boʻlgan quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Polimetall rudalar mineral hosil bo'lish bosqichlari va sharoitlarida katta xilma-xilligi, nisbatiga va asosiy ruda va jins hosil qiluvchi minerallar, rudaning tolali shakli, tekstura va struktura xususiyatlari hisobga olingan holda boyitish texnologiyasi tanlandi.

2. O'rtacha namunadagi kimyoviy tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, o'rganilayotgan ruda namunasida oltin miqdori 2,48 g/t, kumush 8,47 g/t va mis 0,63% ni tashkil etdi. Ruda namunasida sianlanadigan erkin oltin miqdori 80,17 % va kumush 76,06% ni tashkil qiladi; temir va marganes karbonatlari va gidroksidlari bilan 6,61% oltin va 3,87% kumush bog'langan; sulfidlar (pirit, arsenopirit) bilan 7,44% oltin va 10,92% kumush bog'langan.

3. Rudaning mineral va kimyoviy tarkibi bo'yicha rudaning oltin-karbonat-kvarsli kam sulfidli turiga kiradi, asosiy oltin konsentratlari xalkopirit, kvars va karbonatlardir. Oltin uchun mahsuldor paragenetik assotsiatsiyalar oltin-xalkopiritli va oltin-karbonat-kvarsli. Kumush texnologik namunada qo'shimcha element sifatida sof oltin va silvanit tarkibida bo'ladi.

4. Gravitatsion usulda namunaning boyitilishida rudani maydalashning yirikligi -0,1+0 mm bo'lganda eng yaxshi ko'rsatkichlar olindi. Bunda tarkibida 51,43 g/t oltin, 154,8 g/t kumush va 6,9 % mis bo'lgan gravioboyitma olinib, qimmatbaho metallar ajratib olishda mos ravishda 65,7%, 57,94% va 34,78 % ni tashkil etdi.

5. Ruda namunasi 442F yangi reagent bilan flotatsion boyitishda eng yaxshi natija tarkibida 25,47 g/t oltin, 63,49 g/t kumush va 5,93 % mis bo'lgan boyitma olindi, metallarni ajratib olish mos ravishda 78,36 %, 57,2% va 71,8 % ni tashkil etdi.

6. Ruda namunasini to'g'ridan to'g'ri sianlashda eritmaga oltinni ajratib olish 62,81-80,18% va kumushni ajratib olish 45,77-64,79% oralig'ida o'zgaradi. Boyitmani sorbsion sianlashda oltinning smolaga ajralishi 92,10% va kumushning ajralishi 79,60% ni tashkil etdi. Sianlash ko'rsatkichlari boyitish mahsulotlarini oxirigacha yanchish jarayoni qo'llanilgandan so'ng ortadi. Yanchilgan boyitmani sorbsion sianlashda oltinni smolaga ajratib olish 93,70% va kumushni 83,40% ni tashkil etdi; flotatsiyaning oxirigacha yanchilgan chiqindilaridan 78,85% oltin va 75,30% kumush smolaga ajratib olindi.

7. Murakkab tarkibli polimetall konlardan qimmatbaho komponentlarni kompleks ajratib olish uchun tavsiya etilgan kombinirlangan sxema bo'yicha boyitish natijasida ajralish koeffitsiyent mos ravishda oltin uchun 88,3%, kumush uchun 78,7% hamda mis uchun 83,8% tashkil etdi, bu o'z navbatida boyitma tarkibida oltin 42,85 g/t, kumushni 130,4 g/t hamda misni 10,3 % bo'lgan birlashgan boyitma olindi. Olingan boyitmalar TU-Uz-65-001-94-006 talablariga javob beradi va "Olmaliq KMK" AJ mis eritish zavodida mis konsentrati bilan birgalikda eritish uchun yaroqli hisoblanadi. Bu esa qimmatbaho metallar ishlab chiqarish hajmi oshishini hamda yiliga 1 mln tonna rudani qayta ishlaganda 421 670 (to'rt yuz yigirma bir ming olti yuz yetmish) AQSH dollari iqtisodiy samara olish imkonini beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.17/04.06.2021.Т.06.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАВОЙСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ГОРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ им. ИСЛАМА КАРИМОВА**

СУЯРОВ ЖАХОНГИР УСМОНКУЛ УГЛИ

**РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ КОМПЛЕКСНОГО ИЗВЛЕЧЕНИЯ
ЦЕННЫХ КОМПОНЕНТОВ ИЗ СЛОЖНЫХ
ПОЛИМЕТАЛЛИЧЕСКИХ МЕСТОРОЖДЕНИЙ**

04.00.14 – Обогащение полезных ископаемых

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ

Навои – 2025

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2024.4.PhD/T5058.

Диссертационная работа выполнена в Ташкентском государственном техническом университете им. Ислама Каримова.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Ученого совета (www.nsumt.uz) и Информационно-образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziyo.net).

Научный руководитель:	Самадов Алишер Усманович доктор технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Шарафутдинов Улугбек Зиятович доктор технических наук, профессор Махмаражабов Дилмурод Бахтиёрович доктор технических наук, доцент
Ведущая организация:	Филиал Национального исследовательского технологического университета "МИСиС" в городе Алмалыке.

Защита диссертации состоится «18» 09 2025 года в 09⁰⁰ часов на заседании научного совета DSc.17/04.06.2021.T.06.01 (адрес: 210100, г. Навои, ул. Галаба Шох, 76-в. Зал заседаний Навоийского государственного горно-технологического университета. Тел.: (79) 223-23-32; факс: (79) 223-49-66; e-mail: info@nsumt.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Навоийского государственного горно-технологического университета (зарегистрирован за №222). Адрес: 210100, г. Навои, ул. Галаба Шох, 76-в. Тел.: (79) 223-23-32; факс: (79) 223-49-66.

Автореферат диссертации разослан «05» 09 2025 года.
(реестр протокола рассылки №26 от «05» 09 2025 года)



К. Санакулов
Председатель Научного совета по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор

О.У. Фузайлов
Ученый секретар Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.ф.т.н.(PhD)

У.А.Эргашев
И.о. председателя научного семинара при Научном
совете по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В настоящее время в мире процесс обогащения полиметаллических руд сложного состава значительно усложнился, а степень извлечения металлов из года в год демонстрирует более низкие результаты. Одной из основных причин этого является сложное структурное проявление ценных компонентов в составе руды. При изучении запасов руды было подтверждено низкое содержание ценных компонентов, их тонкая вкрапленность, неравномерное распределение частиц и высокая дисперсность. В связи с этим разработка технологии, основанной на особом подходе к обогащению сложных полиметаллических руд, приобретает важное значение.

В мире на сегодняшний день проводятся научно-исследовательские работы по совершенствованию технологий обогащения и гидрометаллургической переработки золотосодержащих руд сложного состава, а также по комплексному извлечению всех ценных компонентов из таких руд и максимальному раскрытию их состава путём разработки новых эффективных технологий. В связи с этим особое внимание уделяется вопросам, связанным с разработкой новых методов, направленных на повышение эффективности переработки золотосодержащих руд сложного состава.

С целью увеличения извлечения ценных компонентов в горно-металлургической промышленности республики внедряются передовые научно обоснованные мероприятия по разработке новых технологий обогащения сложносоставных полиметаллических руд, благодаря чему достигается ряд научно-практических результатов. В этой связи проводятся исследования по разработке комбинированной технологии обогащения с использованием обогатительного оборудования — концентраторов, магнитных сепараторов и флотационных машин.

В Указе Президента Республики Узбекистан определены такие важные задачи, как "Расширение научно-исследовательских работ по внедрению и организации в производстве энергосберегающих и экологически безопасных технологий...". С этой точки зрения особое значение приобретают исследования, направленные на разработку и внедрение технологий обогащения при извлечении полиметаллических руд сложного состава, а также на применение новых методов повышения степени извлечения драгоценных металлов.

Данное диссертационное исследование направлено на реализацию задач, предусмотренных Указом Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Указом Президента Республики Узбекистан от 24 июня 2021 года № УП-5159 ¹«О дополнительных мерах по развитию горно-металлургической

¹ Указ Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы»

промышленности и смежных с ней направлений», Постановлением Президента Республики Узбекистан от 26 мая 2020 года № ПП-4731 О дополнительных мерах по расширению производства цветных и драгоценных металлов на базе месторождений АО «Алмалыкский ГМК», а также другими нормативными документами, связанными с данной сферой, в которых предусмотрены конкретные поручения по расширению отрасли.

